

## МАТЕМАТИКА ANIQ FANLARNING ASOSI SIFATIDA

**Shukurov Xursan Gadoyevich, Norova Intizor Haqberdiyevna**  
matematika fani o‘qituvchilari, BuxMTI akademik litseyi

**Annotatsiya** – Maqolada matematika fanining ahamiyati, uning ta’lim jarayonidagi tutgan o’rni va uni o’qitish dasturlari haqida ilmiy fikrlar ilgari suriladi. Ilmiy fikrlar faktlarga asoslanib xulosalanadi.

**Kalit so‘zlar** – Mamlakat, yosh, ta’lim, tarbiya, fan, matematika, qaror, ijro, baho, soha, xalqaro, dastur, jahon, chora, tadbir, reyting, tadqiqot, ilm, sifat, tizim, vazifa.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga ta’lim va tarbiya berishga hamda “Matematika” fanini o’qitishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 7-maydagи “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-4708-sonli qarorini ijrosini ta’minalash hamda O’zbekiston Respublikasining 2030- yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Konsepsiya doirasida, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish malakalari va kompetensiyalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan. Maktablarda matematika ta’limida o‘quv jarayonini tashkil etish holati jiddiy bo’lib, o‘quv faoliyati bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Matematika o’qitish metodikasining turli yo‘nalishlari bilan N.A.Izvolskiy, V.M.Bradis, S.E.Lyapin, I.K.Andronov, N.A.Glagoleva, I.Ya.Dempman, A.N.Barsukov, S.X Novoselov, A.Ya.Xinchin, N.F.Chetveruxin, A.N.Kolmogorov, A.I.Markushevich, A.I.Fetisov va boshqalar shug’ullandilar. 1970 yildan boshlab maktab matematika kursining mazmuni yangi dastur asosida o’zgartirildi, natijada uni o’qitish metodikasi ham ishlab chiqildi. Hozirgi dastur asosida o’qitilayotgan maktab matematika fanining metodikasi bilan professorlardan V.M.Kolyagin, J.Ikromov, R.S Cherkasov, P.M.Erdniev, N.G’aynullaev, T.To’laganov, A.Abduqodirov va boshqa metodist olimlar shug’ullanmoqdalar. Matematika o’qitish metodikasi pedagogika institutlarining IIIV kursiarida o’tiladi. U o’zining tuzilishi xususiyatiga ko’ra shartli ravishda uchga

bo'linadi: 1. Matematika o'qitishning umumiy metodikasi. Bu bo'limda matematika fanining maqsadi, mazmuni, metodlari va uning vositalarining metodik sistemasi, pedagogika, psixologiya qonunlari hamda didaktik prinsiplar asosida ochlb beriladi. 2. Matematika o'qitishning maxsus metodikasi. Bu bo'limda matematika o'qitish umumiy metodikasimng qonun va qoidalaringan aniq mavzu materialariga tadbiq qiiish yo'iiari ko'rsatiladi. 3. Matematika o'qitishning aniq metodikasi. Chunki bu davrda o'quvchining ta'lif tushunchalarini qabul qilish salohiyati yuqori saviyada bo'lib, ularni muntazam ravishda nazorat qilib borish lozim bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitish hamma davrda muammo bo'lib kelgan, chunki maktabga ilk qadam qo'ygan bolaga son va sanoq tushunchasini shakllantirish pedagogdan juda katta tajriba va mahorat talab qiladi. Darsni tashkil qilishda ko'rgazmalilik hamda didaktik materiallardan foydalangan holda dars qiziqarli tashkil etilishi uchun elektron darsliklardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Matematika fanini o'qitishda AKT vositalaridan foydalanilgan holda nazariy va amaliy mashg`ulotlar shaklida olib boriladi. Nazariy mashg`ulotlarda matematika fanini o'qitishda ilg`or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar haqida ma'lumotlar beriladi. Amaliy mashg`ulotlarda matematikani o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi, zamonaviy ta'lif vositalaridan foydalanish usullari, matematika darsiga qo'yilgan zamonaviy talablar o'rnatiladi. Mashg`ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so`rovlardan, test so`rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta'lif usullaridan foydalanish nazarda tutiladi. Arifmetik amallarni o'rganamiz nomli dasturlar majmuasining mazmuni o'quv rejadagi "O'quv jarayonida axborotkommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash", "Pedagogning kasbiy kompetentligi va mahorati", "Matematika fanini o'qitish metodikasi" o'quv rejasini bilan uzviy bog`langan holda o'quvchilarni bilim darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017 yil 14 yanvar – Toshkent : O'zbekiston, 2017. - 104 b.

2. Bikbayeva N.U va boshqalar Matematika 2 – Toshkent.: O'qituvchi, 2005, 208